



O'SMIRLAR NUTQINING KOMMUNIKATIV VOSITA SIFATIDA RIVOJLANISHI

Muradova Mexrinoz Yaxyojon qizi

murodovamehrinoz@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada o'smirlar nutqining kommunikativ vosita sifatida shakllanishi va rivojlanishining lingvistik hamda psixologik-pedagogik jihatlari yoritilgan. O'smirlik davrida nutqiy faoliyatning takomillashuvi, muloqot jarayonida til birliklaridan maqsadga muvofiq foydalanish, fikrni aniq, izchil va ta'sirchan ifodalash ko'nikmalarining shakllanishi tahlil qilingan. Shuningdek, o'smirlar nutqining rivojlanishida ijtimoiy muhit, tengdoshlar bilan muloqot, oila va ta'lim jarayonining o'rni hamda zamonaviy kommunikatsiya vositalarining ta'siri ko'rib chiqilgan. O'smirlarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda faol muloqot, munozara, suhbat va ijodiy topshiriqlardan foydalanishning ahamiyati asoslangan.

Kalit so'zlar: o'smirlar nutqi, kommunikativ vosita, nutqiy faoliyat, muloqot, kommunikativ kompetensiya, nutqiy ko'nikma, til birliklari, nutq madaniyati, ijtimoiy muhit, kommunikativ kompetensiya.

Hozirgi davrda bolaning ona tilini o'zlashtirishini o'rganish, bolalar nutqini o'rganishdagi psixolingvistik yondashuv bilan bog'liq. Tilni belgilar sistemasi sifatida tushunish va ma'naviy qiymat muammolari F.de Sosseyur tadqiqotlari va boshqa ko'plab olimlar tomonidan yoritilgan. O'tgan asrning 30-yillaridayoq L.S.Vigotskiy tomonidan bolalar nutqini tahlil etishning psixolingvistik asoslari belgilab berildi. Bolaning kattalar bilan muloqoti jarayonida uning nutqi shakllanib, takomillashib boradi. Bu esa ruhiy jarayonlarni tubdan qayta quradi.

A.R.Luriyaning ta'kidlashicha, bolaning o'zini tutishida yuzaga keluvchi murakkab boshqaruv masalalarida nutq faoliyati asos bo'ladi. L.S.Vigotskiyning tushunchasi bo'yicha, psixologik qurol - bu shaxsning faol faoliyati va insonning obyektiv olam bilan bevosita bog'lanishdir. Til belgisi bu o'rinda insonni obyektiv olam bilan va faoliyati jarayonida to'planuvchi tajribasi bilan bog'lovchi vosita sifatida tushuniladi. Predmetlar, ularning bog'lanishi va o'zaro aloqasi haqidagi tushuncha til vositasida namoyon bo'ladi va bolaning ongida mustahkamlanadi, buning natijasida kommunikatsiya jarayoni vujudga keladi.

Ma'lumki, tilda ijtimoiy-tarixiy tajriba aks ettiriladi. Buning asosida bola nafaqat o'z shaxsiy bilimini, balki ijtimoiy bilimini ham mustahkamlab boradi.

Til birliklarining real birliklarga muomala va munosabatga o'tishi o'smirning real birliklarni muvofiqlashtira ola boshlashi va til birliklarini ayrim material obyektlar sifatidagi o'zaro muvofiqligini ifodalash imkoniyatiga erishganligini ko'rsatadi. Bunda real predmetlar muvofiqligini o'rnatish va til birliklarining sezgi tabiati - tafakkurning rivojlanishi biz uchun asosiy bosqich sanaladi.



Faqat o'zining material xususiyati va sezgi tabiati tomonidan olingan til birliklari ideal-material ifoda ekanligini yo'qotmaydi (chunki tilning shu xususiyatiga mos keluvchi shunday ifoda shakli bo'lishi zarur).

Psixologik nuqtai nazardan qaraganda, konkret – hissiy ifoda faoliyati tilning bunday aks ta'siri bo'la oladi. Ifoda jarayoni esa til birliklarining o'zaro bog'liqligi va sezgi tabiati munosabatining real muvofiqligini ko'rsatadi. Hissiy ifoda yordamida real birliklar va til birliklarining muvofiqligi (dastlab subyektiv qiyos) aniqlanadi. Bunday muvofiqlikni belgilash manifestatsiyasi sifatida obrazli bog'lanishlar, ya'ni bolalar tomonidan predmet va so'zlar orasida belgilanadigan, yuqori bosqichda esa – gap va butun vaziyatlar o'rtasidagi o'zaro munosabatning egallanishi nazarda tutiladi.

Shuningdek, eng avvalo, belgilarning funksional borlig'i ularning material borlig'ini qamrab oladi, chunki bola belgilarning material xususiyatini egallashida bu juda muhim. Predmet faoliyati jarayonida bola predmetlarning dastlab material xususiyatlarini, so'ng boshqa predmetlar bilan bog'lanishini va nihoyat, predmetlarni funksional qo'llashni egallaydi, predmet faoliyati (harakati)ning o'sishi davomida predmetlar nom oladi, so'ng so'zli muloqot yuzaga keladi, buning asosida esa tushuncha (designat) shakllanadi. So'z egallashning yuqori bosqichida bu muomala va muloqot birligi, nutqiy faoliyat quroli hamda belgi sifatida namoyon bo'ladi. Bolalarda nutqning rivojlanishi bevosita uning psixik rivojlanishi bilan uzviy bog'lanadi hamda o'ziga xos alohida bir ko'rinish kasb etadi.

Bola tarbiyasi - uning psixologik rivojlanishida, xususan, nutqning rivojlanishida asosiy narsa sanaladi. Bolalar nutqining psixologik talqini bo'yicha ko'plab ishlar qilingan. Aynan ruhshunoslar bolalar nutqini birinchi bo'lib izchil ilmiy tadqiqot o'tkazish maqsadida o'rgana boshladilar. 40-yillarda O.Mourer ko'plab ruhshunoslar va tilshunoslar hozir ham eng ishonchli deb sanayotgan o'zining fonologik rivojlanish haqidagi nazariyasini ishlab chiqdi.

Predmetlarni asrash va atrofda gi jismlarni almashtirish, ya'ni bola tomonidan konkret vaziyatlarning egallanishi, keyinchalik esa mavhum narsalarning o'zlashtirilishi, bolaning mustaqil nutqi yuzaga keladi. Yaxshi sharoitlarda tarbiyalangan bolalarning nutqida yaqqol namoyon bo'ladi.

Hatto, bir oilada tarbiyalangan bolalarning nutqi ham turli yosh davrlarida shakllanishi mumkin. Masalan, taniqli ruhshunos Shtern o'g'lining nutqi birinchi bosqichlarida ikki opasining nutqiga nisbatan kechikkanligini belgilagan.

Demak, shunday hollar ham uchraydiki, bola nutqni yaxshi tushungani bilan, mustaqil nutqi kechikadi. Agar bunday kechikish bola hayotining ikki yarim uch yoshigacha davom etsa, bola injiq bo'la boshlaydi, o'z xohish va istaklarini yetkiza olmayotganligi, kattalar uni tushuna olmayotganligi sababli tez-tez qichqiradi.

Psixologiyada bunday kechikishlarni izohlashga urinishlar ham bo'lgan. Shternning fikricha, o'g'il bolalarda nutq 1-bosqichda rivojlanishiga ko'ra, qiz bolalarning nutqiga nisbatan bir oz kechikadi, lekin keyinchalik o'g'il bolalar bu kechikishning o'rnini nafaqat to'ldiradi, balki qiz bolalarning nutqidan ham ancha oldinga o'tib ketadi.¹

¹Каримова В., Акрамова Ф. Психология. – Т.: ФТДК, 2000. – 172 б.





Bolalar nutqini tadqiq etuvchilar bolada nutqning shakllanishida turli bosqichlarni belgilaydilar va ularni turlicha nomlab, turli yosh chegaralarini ko'rsatadilar. Masalan, A.N.Gvozdev bolalarda nutqning rivojlanishi silsilasini, turli nutq bo'laklari, so'z birikmalari, gapning turli ko'rinishlari ifodalanishiga tayanib, bir qancha bosqichlarga ajratadi.

O'smirlar nutqi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, unda yangicha leksik birliklar, qisqartmalar, slang va jargonlar keng qo'llaniladi. Bu esa ularning psixologik holati, ijtimoiy muhitga moslashuvi va identitetini ifodalashda muhim rol o'ynaydi. Mazkur maqolaning maqsadi – o'smirlar nutqida uchraydigan so'zlarni psixolingvistik jihatdan tahlil qilish, ularning paydo bo'lish sabablari va funksiyalarini aniqlashdir.

1. Psixolingvistikaning nazariy asoslari. Psixolingvistika XX asrning o'rtalarida shakllangan bo'lib, til va psixika o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganadi. Bu sohada tilni qabul qilish, ishlab chiqarish va tushunish jarayonlari muhim o'rin tutadi.

1.1 Til va tafakkur munosabati. Til va tafakkur o'rtasidagi munosabat psixolingvistikaning markaziy muammolaridan biridir. Bu masala bo'yicha turli olimlar turlicha yondashuvlarni ilgari surgan.

Vigotskiy nazariyasi. Lev Vygotsky fikricha, til tafakkurni shakllantiruvchi asosiy vositadir. Unga ko'ra, bola avval ijtimoiy nutqni o'zlashtiradi, keyin ichki nutq shakllanadi, tafakkur esa ichki nutqning mahsuliga aylanadi. Bu nazariya o'smirlar nutqini tushuntirishda juda muhim, chunki o'smirlik davrida ichki nutq kuchayadi va fikr tezroq verbal shaklga o'tadi.

Chomskiy yondashuvi. Noam Chomsky esa tilni tug'ma qobiliyat sifatida ko'radi. Uning "universal grammatika" nazariyasiga ko'ra, inson miyasida til o'rganish uchun tug'ma mexanizm mavjud, til muhit orqali faollashadi. Har bir inson cheklangan ma'lumot asosida ham tilni tez o'zlashtira oladi. O'smirlar nutqidagi tez o'zgarishlar va yangi so'zlarni tez qabul qilishi aynan shu mexanizm bilan bog'lanadi.

Xulosa qilib aytganda, o'smirlik davri shaxsning kommunikativ va nutqiy jihatdan faol shakllanish bosqichlaridan biri hisoblanadi. Mazkur davrda o'smirning lug'at boyligi kengayib, fikrni mustaqil, izchil va mantiqiy ifodalash qobiliyati rivojlanadi. Nutqning kommunikativ vosita sifatidagi imkoniyatlarini egallash esa o'smirning atrofdagilar bilan samarali muloqot qilishi, o'z fikrini erkin ifodalashi va turli kommunikativ vaziyatlarga moslasha olishida muhim ahamiyat kasb etadi. O'smirlar nutqining rivojlanishiga oila, ta'lim muhiti, tengdoshlar bilan munosabat, ommaviy axborot vositalari va raqamli kommunikatsiya kabi omillar bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, o'smirlarni faol muloqotga jalb etish, ularning mustaqil fikrlashini qo'llab-quvvatlash, munozara va suhbatlar tashkil etish, turli nutqiy vaziyatlar asosida topshiriqlar berish kommunikativ ko'nikmalarning rivojlanishiga xizmat qiladi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Жинкин Н.И. Механизмы речи. –М.: Наука, 1972. –200 с.
- 2.Хайдаров А. Ўзбек тилида мулоқот нутқи: психолінгвистик ёндашув. –Т.: Фан, 2017. –152 б.
- 3.Хотамов Н. Инсон ва нутқ: психолінгвистик қарашлар. –Т.: Ўқитувчи, 2002. – 130 б.
- 4.Турсунов У. Ўзбек тилида мулоқот маданияти ва этик меъёрлар. –Т.: Истиқбол, 2020. –110 б.

